

## ATLAS-MILLIYLIK RAMZIDIR



### Abstract:

Ushbu maqolada atlas va uning tarixi shuningdek bu matodan foydalanish haqida ma'lumot berilgan. Xonatlas asta-sekin Yevropa mamlakatlarida ham insonlarning qalbini zabt eta boshladi. Sanoat davrida bunday matolar fabrika usulida ishlab chiqarila boshlandi, ammo fabrikadagi ishlarining ko'p qismi qo'lda bajarilib qolmoqda.

### Key words:

xonatlas, milliylik, usta, bo'yoq, kiyim.

Author of the article:

**Farxiddinova Xushnuda  
Sherzod qizi**

Workspace (Education subject)

**Toshkent To'qimachilik va Yengil  
Sanoat Instituti**

Azaliy qadriyatlarimizni o'zida ifoda etgan ushbu go'zal matolar milliy boyligimiz sanaladi. Unda xalqimizning uzoq hamda shonli o'tmishi, qadimiy an'analari, estetik dunyoqarashi, didi va o'ziga xos xususiyatlari mujassam.

“Atlas” so'zi arab tilidan tarjima qilganda tekis, silliq degan ma'noni anglatadi. U tanda ipi ham, arqoq ipi ham tabiiy ipakdan to'qiladigan bir yuzlama silliq mato hisoblanadi. Alohida ishlov berib atlasga jilo beriladi. Shunga ko'ra u tovlanib turadi. Atlasning tabiiy ipakdan to'qilgan eng a'lo navi sakkiz tepkili xonatlas deb ataladi. Xonatlasning barcha siri uning tuzilish hamda to'qilish usulidadir.

Atlas to'qish Marg'ilonda juda qadimdan rivojlangan va boshqa joylarga tarqalgan. XX asr boshlarida bu yerda ko'plab atlas to'quvchi kosiblar bo'lishgan. 2017 yilda o'zbek ipak matolarining to'qish texnologiyasi YUNESKoning insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgani milliy matolarimizning jahon miqyosidagi yuksak o'rnini namoyon etadi. Bugungi kunda yo'qolib borayotgan an'analarni asrab-avaylash, jumladan, tarixiy matolarni qayta tiklash tobora muhim ahamiyat kasb etadi.



Shuningdek, ipak matolar orasida eng mashhuri abrli atlas va xonatlasdir. Ularning o'ziga xosligi – bezak va gullar matoga emas, balki o'rish ipining o'ziga chiziladi. Aytaylik, uzunligi 200 metr, eni 40 santimetr atlasni to'qish uchun 3 ming 600ta ipak tolani bir-biri bilan uyg'unlashtirish lozim. Bitta tola uzilsa ham mahsulot sifatiga putur yetadi. Shu bois matoga yangi element qo'shish juda qiyin. Iplarni "abr" usulida bo'yash ham katta mahorat talab etadi. E'tiborlisi, barcha ranglar tabiiy usulda, bo'yoq beruvchi giyohlardan tayyorlanadi. Shu bois ular o'z sifatini yo'qotmaydi, ranglar qarishib ketmaydi. Atlasdan ayollar liboslari, ko'rpa, ko'rpachalar, erkaklar qiyig'i va boshqa buyumlar tikiladi. Adrasdan esa ayollarning kiyim-kechaklari bilan birga chopon, ko'rpa, ko'rpachalar tikiladi.

Bugungi kunda ko'plab hunarmandlarimiz tomonidan qadimiy namunalar asosida ishlab chiqarilayotgan "O'zbekiston go'zali", "Marg'ilon", "Bibixonim", "Begoyim", "Kelinchak atlas", "Bargi karam", "Nomozshomgul", "Guldasta", "Navro'z", "Qo'chqorshox" deb nomlangan ipak matolari dunyo miqyosida e'tirofqa sazovor.

Xonatlasdan tikilgan milliy liboslar misoli O'zbekistonning rang-barang tog'laridek. Birinchisi ham, ikkinchisi ham o'zining xilma-xilligi va yorqinligi bilan insonni hayratga solmay iloji yo'q. Kamalakdek rang-barang ipak mato madaniy merosga va o'zbek an'analarining ajralmas qismiga aylandi. O'zbek milliy kiyimlari orasida xonatlasning bo'lmasligi iloji yo'q.


Ilgari bunday matodan tikilgan kiyimlarni faqat badavlat insonlarga sotib olishi mumkin bo'lib, shuning uchun ularni "shohona mato" deb atashgan. Biroq bugungi kunda istagan qiz xonatlasdan libos olishga qodir va uni katta tantana yoki "shaharga chiqish" bo'lishidan qat'iy nazar faxr bilan kiyadi.




Qadim zamonlardan Buyuk Ipak yo'li O'zbekiston hududi orqali o'tgan. Xitoydan ipak va ipakli buyumlar keltirilgan. Asta-sekin mahalliy aholi ipak ishlab chiqarishni, shuningdek ipak mato tayyorlashni o'rgandi. Asrlar davomida to'qish mahorati va matolarni bo'yash usuli sirlari katta avloddan yoshlarga o'tib kelayotgan oilalar bor. Shu tariqa, an'anaviy milliy matolarni tayyorlash sirlari saqlab kelinadi.

Xonatlas asta-sekin Yevropa mamlakatlarida ham insonlarning qalbini zabt eta boshladi. Sanoat davrida bunday matolar fabrika usulida ishlab chiqarila boshlandi, ammo fabrikadagi ishlarning ko'p qismi qo'lda bajarilib qolmoqda. Ipakni yetishtirish va xonatlasni ishlab chiqarish bo'yicha eng mashhur fabrika "Yodgorlik" bo'lib, u Farg'ona viloyatining Marg'ilon shahrida joylashgan. Ushbu shahar o'ta yuqori sifatli ipak matolarning haqiqiy markaziga aylangan. Bu yerda ipak ishlab chiqarish uzluksiz tartibda yo'lga qo'yilgan. Atlasning bir metri 2,5 oy ichida, 22 texnologik operatsiya va 70 foiz qo'l mehnati bilan yaratiladi. Masalan, agar bir metr mato to'rt xil bo'yoqqa ega bo'lsa, unda bu mahsulot to'rt marta bo'yash sexiga borishi va qayta qo'l bilan o'ralishi va qayta yoyilishini anglatadi?





Sharq matolarining sehrini unga naqshlarni soluvchi usta yaratadi. U naqshni ipak iplarida maydalaydi va naqsh qanchalik nozik bo'lsa, uning ishi shunchalik murakkab va mohirona bo'ladi. Rasm solinishida qizil, sariq, pushti, yashil ranglarning joyi aniqlanadi. Qadim zamonlardan beri atlasni yettita, ya'ni kamalakning barcha ranglarida tayyorlashga harakat qilishgan. Uch, to'rt va beshta ranglilari ham bor. Hozir bu bugungi urf va ma'lum bir rangga bo'lgan talabga bog'liq. Odatda, xonatlasni tayyorlashda tabiiy bo'yoq moddalar: anor po'stlog'i, ro'yan, mevalar va o'simliklarning barglaridan olingan suvi, piyoz po'stlog'i va boshqalar qo'llaniladi. Xonatlasdan dunyoning mashhur dizaynerlari va modelyerlari foydalana boshlashdi. Masalan, Jorjo Armani, Guchchi, Oskar de la Renta o'z kolleksiyalariga xonatlas mavzusini qo'shdilar, bu esa har bir libosga Yaqin Sharqning hashamatini in'om etadi. Agar Siz bizda mehmon bo'lish baxtiga muvassar bo'lgan bo'lsangiz, xonatlasdan tayyorlangan mahsulotlardan zavqlanishni rad etmang. O'zbek bozorlari va do'konlarida asl milliy kiyimlarining keng assortimenti taqdim etilib, uni kiygan har bir ayol o'zini sharq ertagining bir qismidek his qiladi!



Kiyim-kechaklar inson hayotining ajralmas bo'lagidir. Biroq uning turlari va kelib chiqishi haqida hamma ham yetarlicha ma'lumotga ega emas. Shu sababli mazkur maqola orqali bular haqida qisqacha ma'lumot berib o'tmoqchimiz. Kiyim, kiyim-kechak deb badanni yopib turuvchi har qanday mato parchasiga aytiladi. Kiyimlar tikiladi, to'qiladi, yoki boshqa usullar bilan tayyorlanadi. Kiyim kiyishdan maqsad, avvalo, tanani atrof-muhit ta'siri: issiq-sovuq, shamol, chang-to'zon, quyosh nurlari, yog'in va hokazodan asrashdir. Bundan tashqari kiyim ijtimoiy sabablarga ko'ra ham kiyiladi. Xuddi shu ijtimoiy va psixologik sabablarga ko'ra kiyim-kechak ko'rimli, chiroyli qilib tayyorlanadi (masalan, boshqa odamlarni jalb qilish, ularga yoqish uchun). Kiyim inson tanasini tashqi muhit (iqlim, ob-havo o'zgarishlari, quyosh nuri va boshqalar) ta'siri va turli mexanik ta'sirlardan asraydigan vositalar to'plami; estetik vazifani bajaradi hamda jins, yosh, milliylik va boshqa xususiyatlarni o'zida aks ettiradi. Keng ma'noda "Kiyim" tushunchasi bosh kiyimlar, oyoq kiyimlar (poyabzal), qo'lqop va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Kiyim turiga ko'ra ichki kiyim, ustki kiyim, bosh kiyimlar, oyoq kiyimlar (poyabzal); vazifasiga ko'ra kundalik, uyda, dam olish paytida, bayram va to'y marosimlarida kiyiladigan (kishilik) kiyimlar, ish kiyim (jomakor), sport kiyim, rasmiy kiyimlar, maxsus kiyimlarga bo'linadi; ayollar, erkaklar va bolalar kiyimlariga ajratiladi [1].

Milliy ko'ylaklarda kashta, qo'yma burma, kant, mag'iz, biser va boshqa ko'pgina bezak turlaridan foydalaniladi. Ishlatiladigan materiallari turi, naqshlar yechimi moda yo'nalishiga bog'liq bo'ladi, lekin an'anaviy xonatlas har doim bir xilda keng ishlatiladi. Xonatlas ko'ylaklarni bichishda uning rasmi to'g'ri tushishiga e'tibor berilishi kerak.

Xonatlasdan tikilgan liboslarning ustida o'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, undagi rapportning kattaligi, rasmlarning aniq-ravshanligi va qat'iyligi bu kiyimni ko'p bo'laklardan tikishga imkon bermaydi, uning shakli aniq, to'g'ri to'rtburchakka yaqin bo'lishi kerak.

#### REFERENCES

1. Otamurodov Otaxon Berdiyevich (2022). Kiyim turlari va ularning kelib chiqishi haqida. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1 (13), 164-166.2. Bichish tikish asoslari S.M.Rahimova, M.M.Karimova Toshkent "DAVR PRES" 2008.3. Kasbiy fanlar metodikasi. Ma'naviy-marifiy, ilmiy nashr. 2018-yil aprel 4-son.